QASHQADARYO VILOYATI QARSHI TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 22-oktabr | 461-4-59-Q/24 | Qarshi tuman hokimligi

Qarshi tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2025-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 20.10.2020 yildagi “Aholini bandligi to‘g‘risida”gi O′RQ-642-son Qonunining 9-bob 38,39,40,41,42,43-moddalari *(Qonun xujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020 ŭ., 03/20/642/1396- son)*, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining *(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami 2008 yil, 29-30-son, 277-modda)* 25-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga *(O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 11.12.2017 yil09/17/965/0393-son)* asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumanda 2025 yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Ijtimoiy muhofazaga muhtojlarning soni o‘zgarishiga qarab ular uchun belgilanadigan ish o‘rinlarining eng kam soni va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash uchun maxsus komissiya tarkibi **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Qarshi tumani bo‘yicha 2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha sonining 10 foizi miqdorida, bu 141 kishini *(2-ilovaga muvofiq)* tashkil etadi.

Shu jumladan:

-o‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 28 foiz (39 kishi);

-umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari 58 foiz (82 kishi);

-safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar 3 foiz (4 kishi);

-nogironlar uchun 3 foiz (4 kishi);

-pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 4 foiz (6 kishi);

-jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar 2 foiz (3 kishi);

-odam savdosi qurbonlari uchun 1 foiz (1 kishi);

-oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlangan shaxslar 1 foiz (1 kishi);

-atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun 1 foiz (1 kishi).

4. Ish beruvchilar ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya-gigiyena normalariga va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasin.

Bunda:

-nogironlar uchun salomatligi va mehnat faoliyatiga nisbatan qo‘yiladigan belgilangan talablar hisobga olingan holda mehnat vazifasini to‘siqsiz bajarish imkonini beruvchi ish joylari;

-yoshlar uchun, ular umumta’lim muassasalarini tamomlaganlaridan keyin ularning kasb-hunar tayyorgarligiga muvofiq keluvchi ish joylari;

14 yoshga to‘lmagan bolalari bor yolg‘iz ota, yolg‘iz onalarga hamda ko‘p bolali ota-onalarga bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bajarishni birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi, o‘zgaruvchan jadvalli ish joylari;

jazoni ijro etish muasasalaridan ozod qilingan yoki sud qarori bilan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun ularning kasb tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari hisobga olinsin.

5. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun zahiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o‘rinlari zahiraga qo‘yilishi va tayyorgarligini ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qilinsin.

6. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zahiraga qo‘yish tashkilot *(ish beruvchi)* tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qilinsin.

7. Ushbu qarorda nogironlar uchun zahiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonidan ortiqcha nogironlar uchun ish o‘rinlari tashkil etgan tashkilotlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozlar belgilansin.

8. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zahiraga qo‘yish bo‘yicha tuman hokimining qarorini bajarmagan korxona, tashkilot va muassasalarning mansabdor shaxsiga, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

9. Barcha korxona, tashkilot va muassasalar har oyda hisobot oydan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga **3-ilovasiga** muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida ma’lumot taqdim etsin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi *(AV ro‘yxat raqami №-3163-son, 31.05.2019 yil)* buyrug‘iga asosan, subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olgan holda, ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorida ishga qabul qilgan korxona va tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oyi davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida haq to‘lash tavsiya etilsin.

11. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (N.Qo‘ldoshov)ga:

bir hafta muddatda mazkur qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlarga yetkazilishini ta’minlasin.

12. Tuman hokimining 2023-yil 5-sentabrdagi 274-4-59-Q/23-sonli qarori 2024 yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

13. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari X.Turdiyev zimmasiga yuklatilsin.

14. Mazkur qaror 2025-yil 1-yanvar kunidan kuchga kiradi.

Tuman hokimi **Alikulov.Z.X**

Qarshi tuman hokimining
2024-yil 22-oktabrdagi
461-4-59-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Qarshi tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtojlarning soni o'zgarishiga qarab ular uchun belgilanadigan ish o'rinlarining eng kam soni va ularga qo'yiladigan talablarni aniqlash uchun maxsus komissiyasi

T A R K I B I

T/r	F. I. Sh	Lavozimi
1	X.Turdiyev	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari, **Ishchi komissiya raisi**
A Ъ З О Л А Р И		
2	N.Qo`ldoshov	Tuman Kambagallikni qisqartish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshligi, **Ishchi komissiya raisi kotibi**
3	N.Safarov	Tuman IIB boshlig'i
4	Lavozimiga ko'ra	Tuman mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i v.b
5	N.Rajabov	Tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi rahbari

Qarshi tuman hokimining
2024-yil 22-oktabrdagi
461-4-59-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Qarshi tumani bo'yicha 2025 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo'yilgan ish o'rinlari to'g'risida
M A Ъ L U M O T

№	STIR raqami	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj , ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar ro'yxati (korxona va tashkilotlarning nomi)	Shtat jadvali bo'yicha xodimlar-ning umumiy soni	Kelgusi yilga zahiraga qo'yish taklif etilayotgan ish o'rinlari soni	Shu jumladan								
					14 yoshgacha va nogiron bolalari bo'lgan yolgiz va ko'p bolali ota onalar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Umumiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Safarbarlik chaqiruv zaxirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga kura tibbiy tusdagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Odam savdosi qurbonlari uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik natijasida jabrlangan-lar	Atrofdagilar uchun xavf to'g'dirmaydi-gan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklar-dan azob chekuvchi shaxslar uchun
1	303183657	"LT TEXTILE INTERNATIONAL" mas'uliyati cheklangan jamiyati Xorijiy korxona	659	19	6	7	1	1	2	1	1		
2	200686423	"QARSHI TUMAN YO'LLARDAN FOYDALANISH" unitar korxonasi mas'uliyati cheklangan jamiyati Xorijiy	52	2	1				1				

		korxona											
3	207149752	CLASTER KHILAL MChJ	321	11	5	3	1		1	1			
4	200688468	Karshi tuman Tibbiyot birlashmasi	2454	24	11	8	1	1	1	1		1	
5	204685169	"SHAROFIDDIN-NURILLO" mas`uliyati cheklangan jamiyati	111	2	1	1							
6	307866285	Karshi agroklaster MChJ	290	6	4		1	1					
7	206808289	Qarshi tuman obodonlashtirish boshqarmasi	339	8	3	2		1	1				**1**
8	203233564	10-umumiy o'rta ta'lim maktabi	100	1		1							
9	203233572	11-umumiy o'rta ta'lim maktabi	78	1		1							
10	203164002	12-umumiy o'rta ta'lim maktabi	125	1		1							
11	203562211	13-umumiy o'rta ta'lim maktabi	51	1		1							
12	203233589	14-umumiy o'rta ta'lim maktabi	76	1		1							
13	203233596	15-umumiy o'rta ta'lim maktabi	112	1		1							
14	203551906	16-umumiy o'rta ta'lim maktabi	75	1		1							

15	203121009	17-umumiy o'rta ta'lim maktabi	118	1		1							
16	203226518	18-umumiy o'rta ta'lim maktabi	91	1		1							
17	203101293	19-umumiy o'rta ta'lim maktabi	108	1		1							
18	203233518	1-umumiy o'rta ta'lim maktabi	88	1		1							
19	203233604	20-umumiy o'rta ta'lim maktabi	65	1		1							
20	203553887	21-umumiy o'rta ta'lim maktabi	55	1		1							
21	203233612	22-umumiy o'rta ta'lim maktabi	95	1		1							
22	203101254	23-umumiy o'rta ta'lim maktabi	148	1		1							
23	203233629	24-umumiy o'rta ta'lim maktabi	91	1		1							
24	203103662	25-umumiy o'rta ta'lim maktabi	108	1		1							
25	203233636	26-umumiy o'rta ta'lim maktabi	123	1		1							
26	203233644	27-umumiy o'rta ta'lim maktabi	107	1		1							
27	203550772	28-umumiy o'rta ta'lim maktabi	55	1		1							
28	203233651	29-umumiy o'rta ta'lim maktabi	98	1		1							
29	203093835	2-umumiy o'rta ta'lim maktabi	85	1		1							

30	203551898	30-umumiy o'rta ta'lim maktabi	51	1		1							
31	203897127	31-umumiy o'rta ta'lim maktabi	38	1		1							
32	203553903	32-umumiy o'rta ta'lim maktabi	64	1		1							
33	203101222	33-umumiy o'rta ta'lim maktabi	155	1		1							
34	203233668	34-umumiy o'rta ta'lim maktabi	148	1		1							
35	203553894	35-umumiy o'rta ta'lim maktabi	52	1		1							
36	203233675	36-umumiy o'rta ta'lim maktabi	49	1		1							
37	203233683	37-umumiy o'rta ta'lim maktabi	81	1		1							
38	203233690	38-umumiy o'rta ta'lim maktabi	72	1		1							
39	203233708	39-umumiy o'rta ta'lim maktabi	116	1		1							
40	203087374	3-umumiy o'rta ta'lim maktabi	130	1		1							
41	203233715	40-umumiy o'rta ta'lim maktabi	69	1		1							
42	203233723	41-umumiy o'rta ta'lim maktabi	121	1		1							
43	203110630	42-umumiy o'rta ta'lim maktabi	91	1		1							
44	203233730	43-umumiy o'rta ta'lim maktabi	100	1		1							

45	203233747	44-umumiy o'rta ta'lim maktabi	80	1		1							
46	203551953	45-umumiy o'rta ta'lim maktabi	46	1		1							
47	203555504	46-umumiy o'rta ta'lim maktabi	50	1		1							
48	203229426	47-umumiy o'rta ta'lim maktabi	126	1	1								
49	203233754	48-umumiy o'rta ta'lim maktabi	75	1		1							
50	203551938	49-umumiy o'rta ta'lim maktabi	58	1		1							
51	203233525	4-umumiy o'rta ta'lim maktabi	103	1		1							
52	203551945	50-umumiy o'rta ta'lim maktabi	40	1	1								
53	203855684	51-umumiy o'rta ta'lim maktabi	40	1		1							
54	203233762	52-umumiy o'rta ta'lim maktabi	90	1		1							
55	203233779	53-umumiy o'rta ta'lim maktabi	83	1	1								
56	203897110	54-umumiy o'rta ta'lim maktabi	36	1		1							
57	203233786	55-umumiy o'rta ta'lim maktabi	70	1		1							
58	203551921	56-umumiy o'rta ta'lim maktabi	61	1		1							
59	203551914	57-umumiy o'rta ta'lim maktabi	33	1	1								

60	203855692	59-umumiy o'rta ta'lim maktabi	89	1		1							
61	203233533	5-umumiy o'rta ta'lim maktabi	126	1		1							
62	203233794	60-umumiy o'rta ta'lim maktabi	115	1	1								
63	206931834	61-umumiy o'rta ta'lim maktabi	59	1		1							
64	206932864	62-umumiy o'rta ta'lim maktabi	51	1		1							
65	207023672	63-umumiy o'rta ta'lim maktabi	41	1		1							
66	207038700	64-umumiy o'rta ta'lim maktabi	40	1	1								
67	207132466	65-umumiy o'rta ta'lim maktabi	84	1		1							
68	207132276	66-umumiy o'rta ta'lim maktabi	48	1		1							
69	207225642	67-umumiy o'rta ta'lim maktabi	58	1		1							
70	306104538	68-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	55	1	1								
71	305904444	69-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	52	1		1							
72	203233540	6-umumiy o'rta ta'lim maktabi	153	1		1							
73	307897287	70- sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	48	1		1							
74	203233557	7-umumiy o'rta ta'lim maktabi	161	1		1							

75	203195146	8-umumiy o'rta ta'lim maktabi	88	1	1								
76	203226493	9-umumiy o'rta ta'lim maktabi	88	1		1							
		JAMI	**9962**	**141**	**39**	**82**	**4**	**4**	**6**	**3**	**1**	**1**	**1**

Qarshi tuman hokimining
2024-yil 22-oktabrdagi
461-4-59-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Tashkilotning nomi

_____

_____

Yuridik manzili:

_____

_____

Qarshi tuman Kambagallikni yaxshilash va bandlikka qo'shish bo'limiga taqdim etiladi.

Har oyda hisobot oydan keyingi oyning 5 kunigacha

2025 yil "___" _____ oyi uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini zahiraga qo'yish to'g'risida
M A Ъ L U M O T

1. Tuman hokimining qaroriga muvofiq nazarda tutilgan hisobot yilida zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari, shu jumladan, nogironlarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlari soni.

2. Zaxiraga qo'yilgan ish o'rinlariga ishga joylashtirilganlar soni:

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar soni	**Hisobot davri oxiridagi holati bo'yicha ishlamoqda (kishi)**	**Ulardan, ishga joylashtirilganlar**	
		hisobot oyida	**yil boshidan boshlab**
Jami:			
Shu jumladan:			
o'n to'rt yoshgacha va nogiron bolalari bo'lgan yolg'iz va ko'p bolali ota-onalar			
umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari			
safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar			
nogironlar va pensiya oldi yoshidagi shaxslar			
jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo'llanilishidan ozod qilingan shaxslar			
odam savdosi qurbonlari			
Atrofdagilar uchun xavf tug'dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar			

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun bo'sh ish o'rinlari soni, hisobot davri oxiriga _____ ish o'rinlari.

Tashkilotning rahbari _____
(imzo)

Kadrlar bo'limi boshlig'i (inspektori) _____
(imzo)

M.O'.

2025 yil "____" _____